

Toshkent Xalqaro Vestminster Universiteti talabalari bilan **“Vatan uchun, xalq uchun, millat uchun”** shiori ostida taskkil etilgan “Mustaqillik darslari

B A Y O N I

2025.08.09.

TXVU

2025-yilning 08-sentabr kuni Toshkent Xalqaro Vestminster Universiteti talabalari bilan **“Vatan uchun, xalq uchun, millat uchun”** shiori ostida taskkil etilgan “Mustaqillik darslariga universitetning barcha birinchi bosqich talabalari qanmrab olindi. Tadbirni ochiq deb e’lon qilish va qutlash uchun so’z Toshkent Xalqaro Vestminster Universiteti rektori Karimov Komiljon Xamidovichga berildi. Komiljon Xamidovich barcha talaba-yoshlarni mustaqilligimizning 34 yilligi bilan muborakbod etib, barchalariga o’quy yili davomida a’lo baholarga o’qishlarini, mustaqil diyorimizning yanada o’sishi, gullashi, dunyoga tanilishida o’zlarining shijoat va tashabbuslari bilan faol bo’lishlarini, bugungi kun barchamiz uchun uzoq yillar davomida kutilganligini, ajdodlarimiz, ota-onalarimiz bu kunlar uchun juda ko’p mehnatlari singanligi, bu kunlar ularning armonlariga aylanganligini shuningdek, Vatan oldidagi burch va mas’uliyatlar haqida so’zlab, tadbir ishtirokchilariga muvaffaqiyat tiladi.



Universitetning “Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar” bo’yicha birinchi prorektori Nizom Kadirov ham so’zga chiqib, yoshlar bilim olishlari uchun bugungi kunda barcha imtiyozlar mavjudligi, yoshlar o’z bilimlari bilan dunyoga tanilishlari va yurtimiz ravnaqiga hissa qo’shishlariga muhtaram prezidentimiz ham katta ishonch bildirishlarini alohida ta’kidlab o’tdi.

“Vatan uchun, xalq uchun, millat uchun” shiori ostida “Mustaqillik darslari” tadbiri doirasida qatag‘on qurbonlari, jumladan, jadidlik harakati namoyandalariga bag‘ishlangan slaydlardan, “Tarixiy xotira, ma’naviy va ruhiy tarbiya-Yangi O‘zbekiston poydevori” xotira va qadrlash kabi mavzusidagi ma’lumotlardan keng foydalanildi.



Shuningdek, universitetning tajribali va mahoratli professor-o‘qituvchilarni mustaqillik darslarida milliy g‘oya targ‘iboti, “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” g‘oyasi hamda “Uchinchi Renessans”, “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”, “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi tushunchalarining mazmun-mohiyatini haqida talaba-yoshlar va xodimlar o‘rtasida keng targ‘ib etdilar.

Universitet favqulodda vaziyatlar bo‘linmalari va yong‘in xavfsizligi mutaxassislari bilan hamkorlikda “Mustaqillik darslari” hamda “Tanishtiruv” tadbirlari o‘tkaziladigan ochiq maydonlar, faollar zali va o‘quv xonalarining yong‘in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tartiblarini tekshiruvdan o‘tkazilib, xavfsizlik talabalariga to‘liq javob berishini ta’minlandi.

Universitet talabalar turar joylarini talabalarni qabul qilishga tayyor holatga keltirildi, universitetni zamonaviy tashqi va ichki targ‘ibot vositalari bilan ta’minlash ishlari amalga oshirildi.



“Mustaqillik darslari” mustaqillikning tarixiy ahamiyati, mamlakatimiz erkinligi yo‘lida kurashgan qahramonlar va millat ravnaqi uchun har birimizning zimmamizdagi mas’uliyat haqida chuqur tushuncha berildi. Universitetning barcha birinchi bosqich talabalari ushbu darslar orqali Vatanimizga bo‘lgan muhabbat va sadoqati yanada mustahkamlandi. Ushbu tadbir yosh avlodni milliy qadriyatlarni hurmat qilishga, mustaqillikni asrashga va mamlakatimiz taraqqiyotiga hissa qo‘shishga chaqirdi.

**Talabalarni qo‘llab-quvvatlash
departamenti direktori:**

G.Bektemirova

Universitet katta tyutori:

F.Ismagilova